

## O'ZBEK ADABIYOTIDA QISSA JANRI TARAQQIYOT TALQINI

Farangiz Abdurahmonova

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11427074>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qissa janrining o'zbek adabiyotida paydo bo'lishidan hozirgi adabiy jarayonga qadar tarixiy tadriji va ushbu davr mobaynida uning shakli va mazmunida kuzatilgan o'zgarishlar xususida so'z yuritiladi. Chunonchi, Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" hamda Shoyim Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissalarining mushtarak va ayricha jihatlari taqqoslab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** epik tur, povest, qissa, davr muammosi, ruhiyat, qahramon.

## INTERPRETATION OF DEVELOPMENT OF SHORT GENRE IN UZBEK LITERATURE

**Abstract.** This article talks about the historical development of the short story genre from its appearance in Uzbek literature to the current literary process and the changes observed in its form and content during this period. For example, the common and special aspects of Abdulla Qahhor's "Tales from the Past" and Shoyim Botayev's "People from Shura" are compared.

**Key words:** epic type, narrative, short story, period problem, mentality, hero.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РАЗВИТИЯ КРАТКОГО ЖАНРА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится об историческом развитии жанра рассказа от его появления в узбекской литературе до современного литературного процесса и изменениях, наблюдающихся в его форме и содержании в этот период. Например, сравниваются общее и особенное «Сказок из прошлого» Абдуллы Каҳхора и «Людей из Шуры» Шоима Ботаева.

**Ключевые слова:** эпический тип, повествование, новелла, проблема периода, менталитет, герой.

Adabiyot – inson tafakkurining badiiy ijod mahsuli bo'lib, kishi ruhiyatini tarbiyalovchi hamda uning qalbini poklovchi asosiy mezondir. Bu mezon – kechinma, voqeabandlik va harakat shakllarida namoyon bo'ladi: lirika, epos, drama. XX asr, jadid adabiyotiga qadar o'zbek adabiyotini faqat lirik asarlar to'ldirib turgan, nasr esa juda kam qo'llanilgan. Nasrning o'zbek adabiyotiga jadal kirib kelishi adabiyotimizni yangi pog'onaga ko'tarib, yangi janrlar va adabiy turlarning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, bu evrilishni qissa (povest) janrida

yaqqol kuzatishimiz mumkin. Aslida, qissa janri mumtoz adabiyotda ham mavjud bo‘lgan, ammo hozirgi epik turning hikoya va roman qatoridagi uch asosiy janrlaridan biri – povest degan ma’noda qo‘llanilmagan. Aksincha, qissa istilohi turli mazmumlarni anglatgan. Qissa ( arabcha قصہ – hikoyat, sarguzasht )

Xalq og‘zaki ijodida ham qissachilik, qissago‘ylik kabi an’analar mavjud bo‘lgan, biroq bu qissalar voqeaband tipidagi qahramon hayoti va boshidan o‘tkazganlari tasvirlangan rivoyaviy asar sifatida e’tirof etilgan. Folkorda ular xuddi dostonlar kabi og‘zaki ijro etilgan, variantlilik xususiyatiga ega bo‘lgan. Keyinchalik ko‘pchilik iste’dodli ( ko‘p hollarda ismi noma’lum) kishilar tomonidan qayta ishlanib, yozma shaklga – xalq kitoblari holiga keltirilgan. Misol uchun, “Qissayı Mashrab”, “Ibrohim Adham qissasi”, “Zufunun qissasi”. Afsonaviy xarakterga ega bo‘lgan, payg‘ambarlar, hakimlar va avliyolar haqidagi asarlar ham qissa atamasi bilan yuritilgan.

Masalan, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Majlisiyning “Qissayı Sayfulmuluk”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlari o‘tmish qissachiliginining yorqin namunalaridir.

Bu asarlarni biz tom ma’noda qissa (povest) deb atay olmaymiz, chunki ularda hayot manzarasi afsonaviy tusda aks ettirilgan. O‘zbek adabiyotidagi ilk realistik qissalar o‘tgan asrning 20-yillarida vujudga kelgan hamda ba’zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, birinchi qissa Abdurauf Fitratning “Hind sayyohining qissasi” ( ba’zi manbalarda “Hind sayyohi bayonoti” ) ekanligi ta’kidlangan. Negaki, ushbu qissasada, shuningdek, Saidrasul Aziziy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon kabi jadidlar tomonidan yaratilgan asarlarda qisssaga xos ayrim unsurlarni kuzatish mumkin.

Biroq o‘zbek nasrining, ayniqsa, qissachiligining rivojlanishi XX asrning 30-yillarida yozilgan G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi”, A.Qodiriyning “Obid ketmon”, G‘ayratiyning “Oqin hukmi” kabi povestlari bilan bog‘liq. Chunki aynan o‘sha asarlar o‘zbek realistik qissalari(povestlari)ni janriy jihatdan shakllantirdi va adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Qissachilikning keyingi taraqqiyot bosqichida Abdulla Qahhor, Oybek, Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Odil Yoqubov, O’tkir Hoshimov kabi iste’dod jilolari muhim o‘rin tutadi. Ular qissa janrida birmuncha oldinga siljib, povest talabiga mos va xos o‘lmas asarlar yaratdi hamda ularda o‘z davrining g‘oyaviy-badiiy maqsadini dadil olib chiqdi.

“Povest (ruscha - повествовать – rivoyaviy hikoya qilish) - bu atama adabiyotshunoslikda qissa istilohining ekvivalenti sifati foydalanib kelinmoqda, ya’nikim bir yoki bir nechta qahramonning hayot yo‘li, boshidan o‘tkazganlari va hissiyot-u kechinmalari orqali uncha katta bo‘limgan bir davrni namoyon etadi.

Bu janrning o‘ziga xos xususiyatlari talaygina. Bejizga bu janrga hajm va mazmun jihatidan hikoyadan kattaroq, romandan esa kichikroq, o‘rtta epik janr deya ta’rif berilmaydi.

Shakliy tomondan oraliqda joylashgan povest g‘oyaviy jihatdan ham o‘rtaliqda joylashgan: hikoyaning asosiy obyekti voqe, romanning asosiy obyekti davr, qissaniki esa SHAXS, bu janrning markazida inson turadi. Shuning uchun ham qahramon roman uchun vosita, qissa uchun esa maqsaddir. Qahramon istilohiga to‘xtab o‘tsak, bu atama (forscha- botir, jasur; champion) - adabiyotshunoslikda epik va dramatik asarlarda personajlar tizimining eng asosiy, muhim rol bajaruvchi, barcha voqealar, hatto syujet ham uning atrofida uyuşhtirilib asarning g‘oyaviy-badiiy maqsadini akslantiradigan shaxs obrazi. Qissa bosh qahramon, ya’ni shaxs taqdiri, hayot yo‘li orqali umrning u yoki bu qirrasini ochib beradigan nasriy janr.

Bu janrning kelib chiqishini sobiq Sho‘ro davlati, mustabid tuzumga taqash mumkin. Negaki aynan o‘sha davrda hali o‘zbek adabiyot ahli uchun yangilik bo‘lgan nasriy: drama, roman, qissa kabi janrlar kirib keldi hamda o‘zbek adiblari Yevropa adabiyotiga taqlidan yangi janrlarda qalam tebrata boshladi. Bu janrlarni yetarlichcha o‘zlashtirib, taraqqiy ettirdiki, bugungi kunga kelib hatto ba’zi qissalarimiz Yevropa adabiyoti, hatto rus adabiyot xazinasidagi sara qissalarni ham ortda qoldiradigan darajaga yetdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. To‘g‘ri, har bir narsaning ibtidosi qiyin kechadi, xuddi shuningdek qissa janrining takomili ham o‘zbek adabiyoti ganjiga osongina singib qolmadi. Bu janrda yaratilgan dastlabki asarlarda voqealar rivoji, syujet, uning qiziqarli va maroqli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etgan, inson ruhiyati esa ikkinchi darajali edi. O‘quvchilar bu asarlarni o‘qib xuddi serial ko‘rgandek bo‘lishardi, undan zavq olishardi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasini o‘qib undan olam-olam quvonch olgan, bor vujudi bilan Qoravoyga hamdo‘st-u sherik bo‘lmagan kitobxon bo‘lmasa kerak. Bu asar fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi, unda voqealar rivoji bir maromda, xronikal tartibda davom etib, asar bosh g‘oyasi shum bolaning yo‘lida uchragan voqealar, syujet ipiga terilgan hodisalarga uyg‘unlashtirilgan. Bundan tashqari, DAVR MUAMMOSI o‘tgan asr qissachiligining tayanch g‘oyalaridan edi. Ushbu asarlarda o‘zbek xalqini qaramlik botqog‘iga botirgan, bu botqoqda muqim qolishini jon-dili bilan istagan totalitar tuzumning kirdikorlari asl yuzini ko‘rsatgan. Mustabidlar o‘lkada istiqomat qiluvchi fuqaroning faqatgina jismiga emas, balki ularning tafakkuriga, qalbiga, miyasiga qullik ilmog‘ini osdilar va sodda, oqko‘ngil xalqning butun hayotini zaharladilar, ularni bir-biriga yovlashtirib rohatlandilar. Mazkur dolzarb davrning achchiq haqiqatlari XX asrda bitilgan asarlarda, shuningdek, qissalarda aks ettirildi. Bu mavzu hozirgacha o‘zbek nosirlarini qo‘lga qalam olishga majburlamoqda va sho‘ro davrining badkirdorliklari fosh etilgan qissalar hozirgi adabiy jarayonda ham uchraydi.

Misol uchun, o‘zbek qissachiligining dastlabki namunalaridan Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasi ham, hozirgi jarayonda barakali ijod qilayotgan Shoyim Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasi ham sobiq Ittifoq davridagi insonlar taqdiridan,

ularni qiyagan davrdan hikoya qiladi. Biroq har bir o‘xshash hodisaning-da mushtarak va farqli jihatlari bo‘ladi, xuddi shunday bu ikki asar bir davrni, bir muammoni olib chiqqan esa-da ularning ayricha jihatlari ham yo‘q emas.

O‘ziga xos uslubga ega iste’dodli yozuvchi Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasi avtobiografik xarakterga egaligi bilan ham ahamiyatga molik. Asarda yozuvchining otasi temirchi Abduqahhor va uning oilasi boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklar, qishloqdan qishloqqa ko‘chgandagi sargardonliklari, hayotning past-u balandlari, shuningdek, bu vaziyatga majbur qilgan DAVR nihoyatda o‘tkir va alamli bo‘yoqlarda chizib ko‘rsatilgan. Ularni ko‘chishga turli sabablar majbur qiladi: temirchilikka bo‘lgan talabning kamligi, ro‘zg‘orning qiyin o‘tayotgani, hatto ba’zan johil odamlar ham sabab bo‘ladi. Abduqahhor temirchi va ahli ayoli Yappanda Olim buva degan nonvoynikida turib, kasbini davom ettiradi. Ammo ba’zi tushunmovchiliklar ularning orasiga sovuqchilik tushiradi. Masalan, bir kuni u mototsiklda yurganini Olim buvaning saksonlardan oshgan ammasi ko‘rib qolib (bunday texnikalarni oldin ko‘rmaganmi?) maxluq deb o‘ylab hushidan ketadi-yu qayta o‘ziga kelmay vafot etadi. Bu voqeadan, tabiiyki, Olim buvaning jahli chiqadi-yu indamaydi. So‘ngroq bir kuni Abduqahhor ertalab do‘konga ketayotib bir paranjilik ayolning kiyimida yantoqni ko‘rib, olib qo‘yadi. Bu xotin Olim buvaning qizi bo‘lib chiqadi va hech narsani eshitishni istamagan johil ko‘nglidagi barcha yaramas gaplarni to‘kib solib uni ayblaydi. U esa shunchaki indamasdan oilasi bilan u yerdan Qo‘sariqqa ko‘chib ketadi.

Abduqahhor – oddiy temirchi bo‘lsa-da, o‘qimishli, ziyoli, johillikdan yiroq, yangi fikrli, shuningdek, har qanday mashaqqatni, hatto insonlarning yovuzliklarini ham matonat va sukunat bilan yengib o‘tadigan inson sifatida gavdalantirilgan obraz. Ammo o‘sha paytda bunday odamlar ozchilikni tashkil qilardi, albatta, ko‘pchilik eski fikr egalari ularni tushunmagan hamda ularni siqib chiqarishga harakat qilgan. Bularning boshida esa ,albatta, sho‘ro hukumati turgan. Misol uchun, Abduqahhor o‘g‘lini o‘qittiraman deb olib borgan Valixon to‘raning o‘zi bitta so‘zni to‘g‘ri o‘qiy olmaydigan chalasavod bo‘lib chiqadi: u so‘fining xatolarini yuziga aytib o‘g‘li Abdullani uning maktabidan chiqarib o‘zi o‘qitadi. Keyinchalik jadid maktabiga beradi, ammo jadid maktablari hukumat tomonidan zo‘rlik bilan yopiladi, hur fikrli ziyolilar esa bosmachilikda ayblanib, qatag‘on qilinadi.

Bularning bari o‘sha davrning qiyin kechganini, ayniqsa, hur fikrli, o‘zini anglagan ma‘rifatli insonlarga juda qiyin bo‘lganini ro‘yirot ko‘rsatib bergen. Binobarin, asarda Oqposhsho, Xalifayi Rum davlati tuzmoqchi bo‘lgan Anvarbek lashkarboshi, Fitrat, bosmachilar kabi tarixiy shaxslar ham keltirilgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi asar qiymatini oshirib, sho‘ro davrining asl yuzini ko‘rsatishda ishonchliroq dalil vazifasini o‘taydi. Xullas, “O‘mishdan

ertaklar” asari o‘zbek qissachiligi xazinasini bir dur bo‘lib boyitdi va kitobxonlarga o‘tmishning asl yuzini oynadek ravshan ko‘rsatib qo‘ydi.

Adabiyot olamiga keyinroq o‘ziga xos qalami bilan kirib kelgan zabardast yozuvchi Shoyim Bo‘tayev ijodida ham xuddi yuqoridagidek sobiq mustabid tuzumning jarohatlari ochiq-oydin bo‘y ko‘rsatgan sara asarlarni kuzatish mumkin. Jumladan, adib qalamiga mansub “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida ham o‘zbek xalqining yuragiga chuqur nishtar sanchgan istibdodning alamlari, “feodal” tuzumning haqsizliklari, o‘zbeklarning bo‘yniga qullik arqonini bog‘lab ularni qo‘yga aylantirgan hukumat nihoyatda qoralangan, shuningdek, asarda bu davrda o‘zligini unutishga majbur bo‘lgan qahramonlar hayoti juda ta’sirli bo‘yoqlarda aks etgan.

Qissaning kirish qismi noahil ikki aka-ukaning qismati bilan bog‘liq, ular yoshligidan shunchalar bir-biriga mehrsiz, bag‘ritosh bo‘lib voyaga yetadiki, hatto onasi ham ularning qalbini isitolmadi. Ulg‘aygach, ikkisi ham yangi hayot boshlaydi, uylanadi. Kichigi ichkuyov bo‘lib qaynotasinikiga ketadi, chunki kelin yolg‘iz farzand edi, aka esa shu hovlida qoladi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, -deganlari bejiz emas ekan, noto‘g‘ri oila muhitida katta bo‘lgan Toshmurod - akaning yolg‘iz o‘g‘li qing‘ir yo‘lga bosh suqadi, ikkita oshnasi bilan o‘g‘irlilik qiladi, yana aynan amakisining sigirini to‘nab ketishadi. Tabiiyki, ular ushlanib, sud qilinadi va qamoqqa hukm qilinadi. Toshmurod jo‘natilgan qamoqxona esa akaning - nozirning ish joyi edi. Asarda nozir - o‘z hayotiy prinsipiga ega, umrida doim ishini oilasidan ustun qo‘yuvchi, butun umrini xazonaga bergen yaproqdek aldoqchi tuzumga bergen, uning hiylalarini anglamay o‘tgan g‘ofil inson, tom ma’noda sho‘roning sodiq itiga aylangan manqurt shaxs sifatida gavdalantirilgan. U shunchalar hukumatga sadoqatli ediki, issiqni issiq, izg‘irinni izg‘irin demasdan jinoyatchilarni qo‘riqlab chiqar edi. Hatto boshlig‘i nozirning xotini vafotini eshitgach, o‘g‘li Toshmurodga janozaga borish uchun ruxsat bergenida va unga ko‘z-quloq bo‘lishni nozirga topshirganida ham uning fikr- xayoli ishda, yosh mahbusni qanday qilib nazarat qilaman degan tashvishli o‘ylarda bo‘ladi. U xotinining azasida ham ish formasida yuradi va o‘zining burch, mas’uliyat, vazifa degan tushunchalariga sodiq ekanini ko‘rsatib qo‘yadi. Biroq xotinini so‘nggi yo‘lga kuzatib bo‘lgandagina oilasining, ayolining, farzandining har qanday burchdan, mas’uliyatdan afzal ekanligini his qildi, ammo vaqt o‘tgan edi, endi so‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman. Yozuvchi nazoratchining o‘sha vaziyatdagi his-tuyg‘ularini shunday tavsiflaydi:

“Nazoratchi shu choqqacha hech ko‘rilmagan bir charchoq his etmoqdaydi. Uning ichi negadir bo‘shab qolganday tuyilardi. Ichini to‘ldirib turgan narsalarining birortasiyam esiga tushmasdi – qamoqxona, boshliq, smena...barchasi yodidan ko‘tarilib ketgandi. Burch, vazifa, mas’uliyat...yarim chaqalik ahamiyati yo‘q hozir. U qabr yonida o‘tirib muk tushib, haykaldek

qotib o‘tiraverdi. Kaftidagi qabrdan olingen bir hovuch tuproqni g‘ayriixtiyoriy ravishda g‘ijimlar, g‘ijimlar, g‘ijimlar edi, xolos.”[2:431]

U hammasini anglab yetadi-yu, endi kech, chunki u o‘z qo‘llari bilan hayotining ustunini, uni soyasiga olgan chinorini- ayolini qulatgan edi. U o‘limi oldidan nazoratchiga yalinib-yolvorib so‘nggi bor o‘g‘lini ko‘rishni iltimos qilgan edi. Xo‘jayindan ruxsat olish uning qo‘lidan kelardi, ammo xo‘jayindan buni so‘rash u uchun o‘lim bilan barobar edi. Shunday qilib mushtipar ayol o‘g‘lining diydorini ko‘ra olmasdan armon bilan bu dunyodan ko‘z yumadi. Bularni o‘ylagan nozir o‘zini aybdor sanaydi va juda tushkunlikka tushadi, Toshmurod esa otasiga dalda berib uning ko‘nglini ko‘taradi. Nazoratchi esa farzandini xuddi bolaligidagidek “o‘g‘lim” deya mehr bilan ataydi.

Ushbu povest qissachilik an’analarini davom ettirib, uni yana bir pog‘ona yuksaltirdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, qissada avvalroq bitilganlarida qo‘llanilmagan usullarni uchratish mumkin, masalan, oldingi qissalarda ruhiyat masalasiga uncha e’tibor qaratilmas edi, asosiy nuqta syujet va voqealar bo‘lgan, xuddi “O‘tmishdan ertaklar” qissasidagidek. Ammo Shoyim Bo‘tayev Yevropa adabiyotiga ergashgan holda inson ruhiy kechinmalarini, mavhum hissiyotlarni ham qalamga oldi hamda o‘quvchilar qalbidan chuqur joy oldi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek so‘z san’atida qissa janri bugungi adabiy jarayonga qadar turli evrilishlarni boshidan o‘tkazdi va har bir yaratilgan yangi povestda yanada takomillashib bormoqda. Ushbu asarlar orqali esa adabiyotimiz xazinasi la’l-u javohirlarga to‘lib ketyapti.

Muhimi, ushbu asarlarning mavzu ko‘lami ham kengayib, shaxs fojiasi, uning ruhiyatidagi o‘zgarishlar, jilovlab bo‘lmaydigan qalb hodisalarini-da o‘z ichiga olmoqda. Quvonarlisi, qissachilikning takomillashuvi kitob muxlislari tomonidan iliq kutib olinyapti. Shunday ekan, o‘zbek milliy qissalari ham kelajakda Yevropa povestlari kabi o‘z cho‘qqisiga erishajak hamda o‘zbek xalqi madaniyatining, o‘zligining, qadriyatlarining toshoynasi bo‘lib qolajak.

## REFERENCES

1. XX asr o‘zbek qissalari tadriji. U.Rasulova. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent – 2012.
2. Sho‘rodan qolgan odamlar. Shoyim Bo‘tayev. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
3. O‘tmishdan ertaklar. Abdulla Qahhor. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent – 1988.
4. Adabiyotshunoslik asoslari. T.Boboyev. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2002.
5. Adabiyotshunoslik lug‘ati. D.Quronov va boshqalar. “Akademnashr”. Toshkent – 2013.